

Tarix darslarida qo'shimcha manbalardan foydalanish.

K.Ubaydullayev nomidagi Respublika pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti "Ijtimoiy fanlar va ma'naviyat asoslari" kafedrasida katta o'qituvchisi Uzaqbergenova Tamara. Beruniy tumanidagi 7-sonli maktab o'qituvchisi Davletova Shirin.

Vatanimiz istiqlolga erishib dunyo xaritasida mustaqil O'zbekiston davlatining paydo bolishi hayotimizning barcha sohalarida tubdan ozgarishlarga olib keldi. Istiqlol so'zi qalbimizni gurur va faxrga to'ldirdi.

Shukurlar bo'lsinki, ota- bobolarimizning asriy orzulari ushaldi. Mustaqilligimizning qadriga yetish uni asrash har birimizning muqaddas burchimizdir. Mustaqilik Deklaratsiyasi e'lon qilinishi, eng asosiy qonunimiz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi xalqimiz hayotida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

1997-yil 29-avgustda "Ta'lim to'g'risidagi qonun" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning qabul qilinishi, Uzliksiz ta'lim tizimiga o'tilishi ta'lim sohasigabo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirdi.

Prezidentimiz I. A. Karimov 1994-yil 7-iyul kuni O'zbekiston Fanlar Akademiyasining umumiy majlisida so'zga chiqib so'zlagan nutqida O'zbekistonning ko'pgina fan tarmoqlarida ilmiy potensialning yuqori ekanligini ta'kidladi va taniqli olimlarimizning xizmatiga yuqori baho berdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1996-yil 16-dekabrda "O'zbekistonning yangi tarixini tayyorlash va uni bosmadan chiqarish haqida" gi 445-sonli qarorini qabul qildi.

Prezidentimiz tarixiy voqealarni ilmiy, ob'ektiv o'rganish bo'yicha 1998-yil 26-iyunda Xorazm viloyatida yurtimiz tarixchi olimlari, yozuvchi va jurnalistlari bilan suhbat o'tkazdi. Prezident o'z suhbatida O'zbekiston tariixning eng muhim masalalariga bag'ishlangan qo'l yozmalar, tarixiy hujjatlar asosida ilmiy izlanishlar olib boorish ular bo'yicha monografiyalar, darsliklar, o'quv qo'llanmalarni yaratish, ob'ektiv bo'lmagan adabiyotlarga tanqidiy ko'z bilan qarash to'g'risida aniq ko'rsatmalar berdi.

Islom Abdug'aniyevich Karimov "Yuqori ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida Vatanimizning o'tmish tarixiga sodiqlik bilan qarab bugungi ozod turmushimizni qadrlab tariximizning qaysi bir davrida bo'lmasin yurtimizda ilmga, yuksak ma'naviyatga intilishning to'xtamaganligini, xalqimiz donoligining o'lmas timsoli sifatida eng og'ir davrlarda ham rivojlanishga erishganligini ta'kidlagan

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'imi Vazirligining umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarix fanini o'qitishni yan gilash va yuksaltirishga qaratilgan qo'shimcha tadbirlar haqida 1998-yil 10-avgust kuni 152-sonli buyrug' i qabul qilindi va tadbirlar ishlab chiqildi. Bu tadbirlar

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 22-iyuldagi 315-sonli "O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix institutining ishini tashkillashtirish to'g'risi"dagi qarori asosida qabul qilindi. Qarorda tarixni haqiqiy yaratish tarix fanini o'qitish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Hozirgi kunda ta'limga berilayotgan e'tibor biz o'qituvchi qadrlarga bilim berishda an'anaviy dars usullaridan voz kechib, yangicha zamonaviy, noan'anaviy usullardan foydalanishni talab qilmoqda. Shu jumladan tarix darslarida ham yangi pedagogik texnologiyalar tadbir qilinmoqda.

Tarix darslarida qo'shimcha manbalar deganda moddiy va ma'naviy manbalarning barchasini tushunamiz. Ular orasida ayrim manbalar borki, bu manbalar bo'yicha bilimlar to'planib, fan sifatida shakllangan. Bular: xronologiya, numizmatika, geraldika va sfragistika fanlaridir. Xo'sh, biz bu fanlar to'g'risida qanday bilimlarga egamiz va ularning yutuqlaridan kundalik hayotimizda, tarix fanini o'rganishda, dars berishda qanday darajada foydalanmoqdamiz. Bulardan tashqari yozma manbalar paleografiya va epigrafika fanlari ham qo'shimcha manba sifatida katta ahamiyatga ega. "Avesto", "Behistun" yozuvlari, Gerodot, Ksenofont, Ktesiy, Strabon, Sin Szyan, Kvint Kursiy Ruf, Arrian, asarlari yozma manba sifatida qimmatlidir.

Hozirgi kunda er yuzida 5 ta Yozuv asosida tuzilgan Yozuv sistemalari tarqalgan :

1. Lotin Yozuvi grafikasidan – dunyo aholisining – 30 % ga yaqini foydalanadi.
2. Fonetik Arab Yozuvi grafikasidan – dunyo aholisining – 10 % ga yaqini foydalanadi.
3. Slovyan – Krill Yozuvi grafikasidan – dunyo aholisining – 10 % ga yaqini foydalanadi.
4. Grafik – Xitoy Yozuvi grafikasidan – dunyo aholisining – 25 % ga yaqini foydalanadi.
5. Bo'g'inli – Hind Yozuvi grafikasidan – dunyo aholisining – 20 % ga yaqini foydalanadi.¹

Yuqoridagi fanlardan xronologiya "vaqt" to'g'risidagi fan hisoblanadi. Gipparx, Klavdiy Ptolomey, Mark Terensiy Varron, Beda Dostopochtenniy asarlarida ilk xronologik ma'lumotlar uchraydi.

Vaqt dunyoning har burchagida har xil hisoblangan. Hozirgi kundagi sistemaga kelguncha ko'p o'zgarishlarga uchragan. Vaqt hisobini chiqarish ustida ko'plab tadqiqotchilar mehnat qilganlar. Hattoki, Umar Xayyomning yil hisobi Grigoriy qalendaridan ham yuqori aniqlikka egaligini fan tan oldi.

Shu o'rinda Prezidentimizning "Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch" asarida keltirgan Fediriko Mayor bilan suhbatini eslash o'rinlidir.

Bugungi kunda har birimiz vaqtga murojat qilmasdan ishni yurgiza olmaymiz. Hatto oddiy kunimiz ham soat va sanani bilishdan boshlanadi. Muhim ishlarni rejalashtirishda qanday kun yoki qanday sana ekanligiga qarab belgilaymiz.

1. Paleografiya va epigrafika. Qo'qon 2008-yil

5-6-7-sinf tarix darslarida xronologik tushunchalar beriladi va ko'pincha biz darslikdagi ma'lumotlar bilangina cheklanib qolyapmiz. Kun, oy, yil, asrlar va eralarni o'rganishda interfaol metodlardan o'rinli

foydalana olsak o'quvchilar onggida davr chizig'ni oson va qiziqarli usulda shakllantira olishimiz mumkin, hamda qisqa vaqt davomida ko'proq ma'lumot berishga erishamiz. Sir emaski, ko'pgina o'quvchilar yillar, asrlar hisobini chiqarishda katta sinf bo'lganda ham qiynalishadi. Bu ko'rinish biz o'qituvchilarga har bir darsda ayniqsa, davr chizig'ini o'rganganda ma'suliyat bilan yondashishni talab etadi.

Hozirgi davrda foydalanilayotgan Grigoriy kalendari XVI asrda qabul qilingan. Yurtdoshimiz Umar Xayyom XII asrda ishlab chiqqan Jaloliy kalendari esa Grigoriy kalendaridan ham aniqroq bo'lgan. Maktab tarix darslarining 5-sinfda I bob "Tarix fani nimani o'rganadi?", 6-sinfda I bo'lim "Eng qadimgi tuzumdan sivilizatsiya sari", 7- sinf "Jahon tarixi"ning Kirish darsida o'quvchilarga xronologik tushuncha va bilim beriladi. Bu darslarda xronologiya fani tarixi, vazifalari to'g'risida ham kengroq ma'lumot berish zarur.

Numizmatika tangalar haqidagi fan ekanligin ko'pchilikka ma'lum. Lekin tangaga yoki rasmiga qarab uni o'qiy olamizmi? Hol buki dars jarayonida ko'pgina mavzular bo'yicha tangashunoslik elementlariga murojat qilinadi. Agar tanganing legendasini o'qiy olsak nafaqat tanganing o'zi haqida balki, o'sha davr to'g'risida yanada ko'proq ma'lumot olishimiz, o'quvchilarga berishimiz mumkin.

Numizmatik manbalar to'g'risida 5-sinf "Tarixdan hikoyalar" kursining "Tarixiy manbalar" mavzusini o'rganganda ilk tushunchalar beriladi. Shu kursning "O'zbekiston hududidagi eng qadimgi davlatlar", "Tangalar - tarix guvohi", "Savdo yo'llari" mavzularini o'rganishda tangalar tarixi, ularning turlari, qanday foydalanilgani, ahamiyati to'g'risida bilim beriladi. Tangalar to'g'risida 6-7-8-9-sinf tarix darslarida davlatlarning savdo aloqalari va pul muomalasiga oid mavzularda bilim beriladi. 6-sinfda "Salavkiylar davlati va Yunon-Baqtriya podsholigi", "Kushon podsholigi" mavzularida hikoya usulida quyidagi rasmlar va ma'lumotlarni keltirish mumkin.²

12 "Numizmatika" fanidan o'quv - uslubiy majmua

Юнон-Бактрия ва Кушон подшолари тангалари.





Miloddan avvalgi III asr oxirlarida O'rta Osiyoning o'z tangalari paydo bo'ldi. Ular Antioxning kumush tangalariga o'xshatib zarb etiladi. Miloddan avvalgi III asr o'rtalarida Salavkiylar hokimligining sharqiy hududlarida grek-Baqtriya yuzaga keldi. Yunon –Baqtriya tangalari yuqori badiiy did bilan ishlangan bo'lib har bir tangada podshoning tasviri zargarona san'at bilan bajarilgan. Yunon –Baqtriya tangalari mamlakatimizning janubiy hududi Surxondaryo viloyatida ko'p uchraadi. Buxoro vohasida yirik kumush tangalarning 60 nusxadan iborat butun boshli xazinasi topilgan. Yunon –Baqtriya tangalariga o'xshagan tangalar O'rta Osiyoning janubiy Amudaryo bo'ylarida Buxoro va Xorazm vohalarida ham chiqarilgan. Tilla pullar –stater, kumush tangalar – tetradraxma, draxma, yarim draxma deb atalgan. Mis tangalardan kundalik savdoda foydalanilgan. Kushon tangalarida ham yunon-baqtriya ta'siri yaqqol sezilgan. Keyinroq Kushonning o'ziga xos alohida tangalari paydo bo'lib, ularda Budda tasviri tushirilgan.³

Maktab darsliklarining ko'pgina mavzularida gerblar, ramziy belgilar to'g'risidagi bilimlar darslarning yanada qiziqarli va jonli o'tishini ta'minlaydi. Buning uchun birinchi navbatda biz o'qituvchilar geraldik va sfragistik bilimlarga hamda ularni dars davomida qo'llay bo'lish mahoratiga ega bo'lishimiz lozim. Geraldika gerblar va ular haqidagi haqidagi bilimlar tizimidir. Geraldika atamasi latince "heraldus" – jarchi so'zidan kelib chiqqan. Polyakcha "herb", nemischa "erbo" atamaları meros va merosxo'r ma'nolarida qo'llanilgan. Gerb biron bir mamalakat yoki hududning siyosiy va tarixiy xarakterdagi g'oyalar majmuasini o'ziga hos tabiiy va xo'jalik xususiyatlari, tabaqaviy tavofutlarini, shaxs, urug' va boshqalarning shajaralarini ifodalovchi alohida ramziy belgidir.

Geraldika moddiy, madaniy yodgorliklarni: gerb, tabg'a, muhr nishonlarini hamda gerbli va ramzli yozma manbalarni o'rganadi. Milliy an'analar, ijtimoiy xususiyatlar, mamalakatlararo iqtisodiy va madaniy aloqalarni o'rganishga yordam beradi. Fanning asosiy fazifasi belgilangan ob'ertga qarab tarixiy manbalarni o'rganish tadqiq etish va ular orqali ma'lum bir davrning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini ochib berish, hukmdorlar, sulolalar, shaxslar voqealarini davrlashtirishdan iborat.

Tarixga nazar tashlar ekanmiz, ko'pincha gerblarning ta'rifi va tasviriga duch kelamiz. Gerblar yoki uning alohida elementlari moddiy madaniyatning turli buyumlarida: qo'lyozmalar va kitoblar,, tabgalar va muhrlar, qurollar, ro'zg'or buyumlari, kiyim, me'morchilik yodgorliklari va boshqalarda ko'plab uchraydi.⁴



Turli ashyolardagi geral'dik tasvirlar.

3 Numizmatikadan ma'ruzalar matni. Qo'qon 2008

4. "ГЕРАЛЬДИКА ВА СФРАГИСТИКА" ФАНИДАН ЎҚУВ – УСЛУБИЙ МАЖМУА Гулистон-2007 йил

“Idrok xaritasi” yordamida geraldikaning paydo bo’lishini o’rganamiz.



